Xalq sözi

Özbekiston – kelajagi buyuk davlat


2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRIŞ VA JAMIYATNI YUKSALTIRIŞ YILI

1991-yil 1-yanvardan çiqa boşlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 27-oktyabr, № 225 (9396) Seşanba

Saytimizga ötiş uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

ÖZBEKISTON PREZIDENTI QATAR AMIRI BILAN UÇRAŞUV ÖTKAZDI

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyev 26-oktyabr kuni mamlakatimizga amaliy taşrif bilan kelgan Qatar Davlati Amiri Şayx Tamim bin Hamad Ol Soniy bilan uçraşuv ötkazdi.



Suhbat avvalida Özbekiston va Qatar örtasidagi oliy darajadagi faol muloqotlar va tizimli işlar natijasida aloqalar strategik şeriklik darajasiga kötarilgani mamnuniyat bilan ta'kidlandi.

Bu kabi yaqin munosabatlar ikki tomonlama döstlik hamda hamkorlikni yanada mustahkamlaşi alohida e'tirof etildi.

Uçraşuvda oliy darajada erişilgan kelişuvlar ijrosining borişi körib çiqildi. Savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, ijtimoiy va gumanitar sohalardagi loyihalarni yanada kengaytirişga ahdlaşib olindi.

Yetakçilar global va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar yuzasidan ham fikr almaşdilar.

ÖzA.

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

ÖZBEK KINOSI: TARIXIY MEROSDAN YANGI YUKSALIŞ SARI

Prezident Şavkat Mirziyoyev 26-oktyabr kuni kino sohasiga zamonaviy boşqaruv usullarini joriy qiliş va «Özbekfilm» milliy kino brendini yaratiş yuzasidan taqdimot bilan tanişdi, soha vakillari bilan muloqot qildi.

Kino san'ati jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy hayotida muhim örin tutadi. U mamlakatning tarixi, milliy qadriyatlari va zamonaviy taraqqiyotini keng jamoatçilikka yetkazişda samarali vosita hisoblanadi.

Sohani qöllab-quvvatlaşga doir ikkita farmon va sakkizta qaror qabul qilindi. Filmlar oliş uçun Davlat byudjetidan 2016-yilda 10 milliard söm ajratilgan bölsa, bu yil 218 milliard söm berildi. Ön yilda ajratilgan mablağ jami 1 trillion 200 milliard sömni taşkil etdi.

Sohada davlat monopoliyasi tugatilib, xususiy kinostudiyalarning faoliyati yölga qöyildi. Tarixiy şaxslar va milliy özlikni anglaşga qaratilgan asarlar suratga olinib, zamonaviy kinopavilyonlar taşkil qilindi. Xorijiy davlatlar bilan yirik loyihalar amalga oşirilmoqda.

Davlatimiz rahbari amalga oşirilayotgan çora-tadbirlarga qaramay, sohada kamçiliklar saqlanib qolayotganini ta'kidladi. Xususan, buyuk özbek rejissyorlari asos solgan çuqur psixologik va falsafiy özbek kino maktabi susayib, yuzaki syujetli filmlar köpaygani, sifatli ssenariylar yetişmayotgani hamda operatorlik, ovoz rejissyorligi va montaj sohasidagi avlodlar uzilişi yuzaga kelgani körsatib ötildi.

Örganişlar hozirda işlab çiqarilişi belgilangan 181 ta loyihada mavzu va davrlarning qaytarilişi, ijodkorlarning bir vaqtning özida bir neçta loyihalardagi iştiroki, ayrim studiya va ijodiy guruhlar yetarli tajribaga ega emasligini körsatdi.

Agentlik faoliyati samaradorligining asosiy körsatkiçlari suratga olinayotgan filmlarning ommabopligi, tomoşabinlarning e'tirofi emas, balki tasdiqlangan rejani bajarişdan iborat bölib qolgani qayd etildi. Qolaversa, filmlarning marketingi, distributsiya va xalqaro sotuvi böyiça tizim yölga qöyilmagan.

Taqdimotda kino sohasiga zamonaviy boşqaruv usullarini joriy qiliş va "Özbekfilm" milliy kino brendini yaratiş maqsadida qator taşabbuslar bildirildi. Xususan, Kinematografiya agentligi, uning tizimidagi 19 ta taşkilot va Kinematografiya jamğarmasini tugatiş, ularning vakolatlarini Madaniyat vazirligiga ötkaziş, böşagan binolarni auksionda sotuvga çiqariş taklif qilindi.

Madaniyat vazirligi muassisligida "Özbekfilm" milliy kinokompaniyasi taşkil etilib, sohadagi boş operator etib belgilanadi. Kino mahsulotlarini işlab çiqarişda davlat buyurtmasi tizimi bekor qilinib, loyihalar kompaniya tomonidan unga ajratiladigan byudjet subsidiyalari orqali moliyalaştiriladi.

(Davomi 2-betda).

INFRATUZILMA YANGILANADI, IMKONIYATLAR KENGAYADI

Prezident Şavkat Mirziyoyev tibbiy infratuzilmani yagona master-reja asosida rivojlantiriş hamda soğliqni saqlaş tizimida xususiy sektor iştirokini kengaytiriş yuzasidan taqdimot bilan tanişdi.

Tibbiyot muassasalarini joylaştiriş, quriş va jihozlaş aholining ehtiyojiga tayangan holda rejalaştirilişi zarur. Hozir ayrim hududlarda xizmatlar tarqoq taşkil etilgan, şifo örinlari notöğri taqsimlangan, eski binolar va uskunalardan foydalaniş esa tibbiy yordam sifatiga ta'sir qilmoqda.

Işni mavjud obyektlar haqidagi aniq ma'lumotlarni şakllantirişdan boşlaş közda tutilgan. Önta viloyatda ötkazilgan xatlovda sohaga tegişli 3 499 ta obyekt aniqlangan. Bu Kadastr agentligi ma'lumotlaridagidan 494 taga köp. Barça hududlarda xatlovni yakunlaş, obyektlarning elektron pasportlarini şakllantiriş va soha köçmas mulkining yagona raqamli reyestrini yaratiş taklif etildi.

Şu ma'lumotlar asosida 2026 – 2036-yillarga möljallangan tibbiy infratuzilma master-rejalarini amalga oşiriş masalasi körib çiqildi. Har bir hudud böyiça aholi soni va ösişi, tibbiy xizmatlarga ehtiyoj, muassasalarning quvvati hamda bemorlarning ularga yetib boriş vaqti hisobga olinadi. Master-reja qaysi obyektni saqlab qoliş, birlaştiriş yoki rekonstruksiya qiliş, yangisini qayerda quriş, uni qanday jihozlaş va qança mutaxassis zarurligini belgilaydi. Investitsiya dasturlarini ham şu rejalar asosida şakllantiriş nazarda tutilmoqda.

(Davomi 2-betda).

V YOZGI PARAOSIYO ÖYINLARI ĞOLIBLARI VA IŞTIROKÇILARIGA

Matonatli va qahramon öğil-qizlarim!

Hurmatli ustoz-murabbiylar!

Muhtaram ota-onalar!

Avvalo, barçangizni Yaponiyada bölib ötgan V yozgi Paraosiyo öyinlarida Özbekiston jamoasi tom ma'noda tarixiy ğalabani qölga kiritgani bilan çin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Mard va jasur farzandlarimiz Osiyo qit'asining 45 ta davlatidan 2 ming 600 nafardan ziyod kuçli para sportçi iştirok etgan uşbu nufuzli musobaqalarda çinakam jasorat va matonat körsatib, mamlakatimiz sporti tarixida yana bir şonli sahifa oçganlari barçamizga çeksiz ğurur bağişlaydi.

Sizlar qizğin va murosasiz ruhda keçgan bellaşuvlarda 45 ta oltin, 49 ta kumuş va 51 ta bronza medalni qölga kiritib, Vatanimiz bayroğini baland kötarganingiz yuksak tahsinga munosibdir.

Sizlarning har bir çiqişingizni yurtimizdagi millionlab muxlislaringiz katta qiziqiş va hayajon bilan kuzatib bordi.

Butun Özbekiston xalqi Yaratgandan omad va zafarlar tilab, sizlarni çin dildan qöllab-quvvatladi.

Ayniqsa, sizlar ulkan azmu şijoatingiz bilan sporti jadal rivojlanayotgan Hindiston, Janubiy Koreya, Eron, Tailand, Indoneziya kabi davlatlar jamoalarini ortda qoldirib, Xitoy Xalq Respublikasi va Yaponiyadan keyin uçinçi örinni zabt etganingiz – çinakam qahramonlikdir.

Sizlar Paraosiyo öyinlarida nafaqat çempionlik maqomini, balki butun xalqimizning işonçini, Vatanimiz şa'ni va ğururini munosib himoya qildingiz.

Özbekiston sport delegatsiyasi qölga kiritgan oltin medallarning teng yarmi qizlarimiz hissasiga töğri kelganini alohida mamnuniyat bilan ta'kidlaşni istardim.

Şiddatli bahslarda yurtdoşlarimiz jahon va Osiyo rekordlarini yangilab, özbek para sportining imkoniyatlari çeksiz ekanini yana bir bor isbotladilar.

Pauerliftingçi qizimiz Röza Qöziyeva delegatsiyamiz hisobiga oltin medal taqdim etiş bilan birga jahon rekordini örnatdi. Madina Muxtorova, Karomat Omonova yadro uloqtirişda, Şahina Yigitaliyeva nayza uloqtirişda, Navröza Ahmadova disk uloqtirişda, Xurşid Qodirov 100 metrga yugurişda, Yegor Bolotov 100 metrga çalqança suziş va 200 metrga kompleks suziş dasturlarida, delegatsiyamiz tarkibidagi eng yoş sportçilarimizdan 16 yoşli Lolaxon Qodirova qizimiz 50 metrga erkin usulda suzişda Osiyo rekordini qayd etdi.

Bundan taşqari, para velosport, pauerlifting va para yengil atletika sport turlari böyiça ham 16 nafar vakilimiz Paraosiyo öyinlari rekordini yangilaşga muvaffaq böldi.

Dmitriy Xorlin törtinçi bor, Bobirjon Omonov, Husniddin Norbekov, Qudratilloxon Ma'rufxöjayev, Faxriddin Hamroyev uçinçi bor Paraosiyo öyinlari şohsupasiga kötarilgan bölsa, Asila Mirzayorova, Şahina Yigitaliyeva, Guljonoy Naimova, Röza Qöziyeva ikkinçi marotaba qit'ada tengsiz ekanini amalda tasdiqladilar.

Şuningdek, Madina Muxtorova, Navröza Ahmadova, Mubinabonu Xalilova raqiblariga heç bir imkoniyat qoldirmasdan ikki karra, Xurşid Qodirov esa uç karra oltin medal sohibiga aylandi.

Paraosiyo öyinlarida birinçi marta iştirok etgan Yegor Bolotov para suziş dasturlarida 4 ta oltin va 1 ta kumuş medalni qölga kiritdi.

Para velosport böyiça jahon birinçiligida Özbekistonga ilk tarixiy oltin medalni olib kelgan delegatsiyamiz bayroqdori Marjona Pardaboyeva Paraosiyo bellaşuvlarida ham yetakçilikni saqlab qoldi va ikki karra Osiyo çempioni degan şarafli nomga sazovor böldi.

Delegatsiyamizning 15 yaşar a'zosi Boburbek Toştemirov para velosportning trek bahslarida Özbekistonning Paraosiyo öyinlaridagi birinçi oltin medalini qölga kiritiş bilan birga eng yoş çempion sifatida ham tarixga kirdi.

Bularning barçasi – sizlarning tinimsiz mehnatingiz, bukilmas irodangiz, iste'dod va mahoratingiz, qolaversa, yurtimizda inson qadrini yuksaltirişga qaratilgan tizimli işlarimiz natijasi, desak, ayni haqiqatni aytgan bölamiz.

Fursatdan foydalanib, mana şunday dovyurak va pahlavon farzandlarni tarbiyalagan, ezgu intilişlaringizni doimo qöllab-quvvatlab kelayotgan ota-onalaringiz, mohir va jonkuyar murabbiylaringizga çin yurakdan minnatdorlik izhor etaman.

Qadrli döstlar!

Hurmatli sportçilar!

Sizlar Aiçi-Nagoya maydonlaridagi yorqin ğalabangiz bilan Yangi Özbekistonda Paralimpiya harakati yuqori bosqiçga kötarilgani, bu yölda yangi oltin avlod şakllanganini butun dunyoga namoyon etdingiz.

Bir fikrni alohida ta'kidlab aytmoqçiman: sizlar taqdirning har qanday sinovlariga qaramasdan, faqat ğalaba, ezgu maqsad va yuksak marra sari intiladigan insonlarsiz. Mana şunday fazilatlaringiz yanada ziyoda bölsin!

Işonçim komil, Yaponiya zaminida erişilgan natija, töplangan tajriba 2028-yil Los-Anjelesda ötadigan Paralimpiya öyinlari uçun mustahkam zamin bölib xizmat qiladi.

Sizlar jahonning ana şu eng nufuzli öyinlariga ham albatta munosib tayyorgarlik bilan borasiz!

Kelgusi faoliyatingiz yanada yorqin zafarlarga albatta boy böladi!

Yangi Özbekistonning buyuk sport solnomasini yaratişda sizlarga hamişa omad yor bölsin, aziz farzandlarim!

Şavkat MIRZIYOYEV,
Özbekiston Respublikasi Prezidenti

MAMLAKATIMIZ SPORTI TARIXINING YANA BIR ŞONLI SAHIFASI

Joriy yilning 19 – 24-oktyabr kunlari Yaponiyaning Aiçi prefekturasi va Nagoya şahrida ötkazilgan V Paraosiyo öyinlarida Vatanimiz şarafini munosib himoya qilib, yuksak natijalarga erişgan parasportçilarimiz yurtimizga yoruğ yuz bilan qaytdi. Islom Karimov **Iftixor** *nomidagi Toşkent xalqaro aeroportida ularni tantanali kutib oliş marosimi bölib ötdi.*



...Aeroportda odatdagidan özgaça muhit hukmron. Qöllarda Özbekiston bayroği, dillarda ğurur va iftixor, yuzlarda esa quvonç.

Nihoyat, orziqib kutilgan damlar. Parasportçilarimiz samolyotdan tuşib kelar ekan, qöllaridagi Vatan bayroğini mağrur kötaradi.

Karnay-surnay sadolari, olqişlar aeroportni şukuhga töldirdi. Sportçilarga taqdim etilgan gullar, samimiy tabriklar va dildan aytilgan tilaklar uşbu lahzalarning hayajonini yanada oşirdi.

Tantanali marosimda Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva, sport vaziri Adham Ikromov, Özbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining birinçi örinbosari, Milliy paralimpiya qömitasi raisining birinçi örinbosari Şahnoza Mirziyoyeva, şuningdek, davlat va jamoat taşkilotlari vakillari iştirok etdi.

4

Özbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

TIBBIYOT XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN SOHA XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLAŞ TÖĞRISIDA

Mamlakatimizda soğliqni saqlaş va farmatsevtika tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantiriş, tibbiy xizmatlar sifati va samaradorligini oşiriş, sohani tubdan isloh etişga qaratilgan dasturlar ijrosini ta'minlaş borasidagi köp yillik samarali mehnati, boy bilim va tajribasi, professional mahorati bilan diagnostika va davolaş amaliyotida ilğor texnologik va innovatsion usullarni keng qöllaş, raqamli transformatsiyani jadallaştiriş, jamiyatda soğlom turmuş tarzini tarğib etiş, aholi salomatligini mustahkamlaşga qöşgan munosib hissasi, yuqori malakali kadrlarni tayyorlaş yölidagi katta xizmatlari hamda ijtimoiy hayotdagi faol iştiroki uçun quyidagilar mukofotlansin:

«Özbekiston Respublikasida xizmat körsatgan soğliqni saqlaş xodimi» faxriy unvoni bilan

Daminov Botir Turgunpulatoviç – Respublika ixtisoslaştirilgan nefrologiya va buyrak transplantatsiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori

Djurayev Mirjalol – Respublika ixtisoslaştirilgan onkologiya va tibbiy radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining abdominal jarrohlik bölimi ilmiy rahbari

Karimov Şavkat Ibragimoviç – Respublika xirurgik angionevrologiya ixtisoslaştirilgan markazi direktori

Yusupov Azamat Farxadoviç – Respublika ixtisoslaştirilgan köz mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori

«Özbekiston Respublikasida xizmat körsatgan yoşlar murabbiysi» faxriy unvoni bilan

Vaisov Adxamdjon – Toşkent davlat tibbiyot universitetining 1-dermatovenerologiya va kosmetologiya kafedrasi professori

«Fidokorona xizmatlari uçun» ordeni bilan

Aliyev Aziz Abdullayeviç – Qöqon şahri tibbiyot birlaşmasining nevrologiya bölimi şifokor-nevrologi, Farğona viloyati

Alimuxamedova Nazira Agzamovna – Respublika ixtisoslaştirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining klinik-diagnostik laboratoriyasi laboranti

«Mehnat şuhrati» ordeni bilan

Mamasadikov Nurillo Şukrullayeviç – Farğona şahridagi "Central Asian medical university" nodavlat ta'lim muassasasi ta'sisçisi, Farğona viloyati

I darajali «Soğlom avlod uçun» ordeni bilan

Aliyeva Dilfuza Abdullayevna – Respublika ixtisoslaştirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining "Oila va nikoh" maslahatxonasi mudiri

Alyavi Baxromxon Anisxonoviç – Respublika ixtisoslaştirilgan terapiya va tibbiy reabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori

Aşurov Zarifjon Şarifoviç – Respublika ixtisoslaştirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori

Kuldjanov Joldas – Amerika Qöşma Ştatlari Sent-Luis universiteti şifoxonasining ortopediya bölimi mudiri

Sabirov Uluğbek Yusupxonoviç – Respublika ixtisoslaştirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori

Taşmuxamedova Barno Erkinovna – Toşkent şahridagi 1-bolalar klinik şifoxonasining çaqaloqlar patologiyasi bölimi mudiri

Tulyaganov Davron Baxtiyaroviç – Respublika şoşilinç tibbiy yordam ilmiy markazi boş direktori

Fozilov Xurşid Ğayratoviç – Respublika ixtisoslaştirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori

II darajali «Soğlom avlod uçun» ordeni bilan

Axmedova Oliya Mamatqulovna – Qaşqadaryo viloyati bolalar köp tarmoqli tibbiyot markazining allergologiya bölimi mudiri

Babajanova Şaxida Dadajanovna – Respublika perinatal markazining akuşerlik bölimi mudiri

(Davomi 2-betda).

Özbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMONI

TIBBIYOT XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN SOHA XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLAŞ TÖĞRISIDA

(Davomi. Boşlanişi 1-betda).

Boboyeva Nodira Isroilovna – Respublika ixtisoslaştirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Samarqand viloyati filiali tuğuruq bölimi doyasi

Bolkunova Faina Vladimirovna – Özbekiston Respublikasi Soğliqni saqlaş vazirligining davlat ilmiy tibbiyot kutubxonasi rahbari

Kiliçev Ibadulla Abdullayeviç – Urganç davlat tibbiyot institutining asab kasalliklari, tibbiyot psixologiyasi va psixoterapiya kafedrasi professori, Xorazm viloyati

Saidazizova Şaxlo Xibziddinovna – Soğliqni saqlaş vazirligi huzuridagi Uzluksiz Tibbiy ta'lim milliy institutining bolalik davri asab kasalliklari kafedrasi dotsenti

Yusupova Nargiza Sotvoldiyevna – Asaka tumani maslahat-diagnostika bölimining bolalar şifokor-nevropatologi, Andijon viloyati

«Döstlik» ordeni bilan

Akiko Fuji – Birlaşgan Millatlar Taşkiloti Taraqqiyot dasturining Özbekistondagi doimiy vakili

Ayubiy Eisaxan Ayub – Amerika Qöşma Ştatlari "Project C.U.R.E." taşkilotining hukumat va nodavlat notijorat taşkilotlari bilan hamkorlik böyiça boş direktori

Baiyev Xasan Junidoviç – Rossiya Federatsiyasining E. P. Glinka nomidagi Respublika bolalar klinik şifoxonasi yuz-jağ va plastik jarrohi

Gizatulina Nazira Rasulovna – Akademik V. Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslaştirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining reanimatsiya bölimi anesteziolog-reanimatologi

Musayev Axmet Yusupoviç – Ellikqal'a tumani tibbiyot birlaşmasining bolalar reanimatsiyasi bölimi şifokor-reanimatologi, Qoraqalpoğiston Respublikasi

Pak Antonina Alikovna – Respublika ixtisoslaştirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining skrining-tibbiy maslahat bölimi şifokor-genetigi

Toyimbetova Galiya Kalabayevna – Zarafşon şahar köp tarmoqli markaziy şifoxonasining yuqumli kasalliklar bölimi şifokori, Navoiy viloyati

Sareva Viktoriya Eduardovna – Akademik Yo. Töraqulov nomidagi Respublika ixtisoslaştirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Toşkent şahar filiali boş şifokori

Usmanova Parizod Abdikayumovna – Respublika bolalar ftiziatriya va tayanç-harakat tizimi kasalliklari reabilitatsiyasi markazi direktorining davolaş işlari böyiça örinbosari

I darajali «Salomatlik» ordeni bilan

Karimov Abdufarrux Abdusataroviç – Akademik Yo.Töraqulov nomidagi Respublika ixtisoslaştirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining neyroxirurgiya bölimi ilmiy rahbari

Razikova Ilmira Sadullayevna – Respublika ixtisoslaştirilgan allergologiya va klinik immunologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori

Raxmatov Nabijon Saliyeviç – Töraqörğon tumanidagi "Yangiobod" oilaviy poliklinikasi oilaviy şifokori, Namangan viloyati

II darajali «Salomatlik» ordeni bilan

Begmanov Baxit Qudaybergenoviç – Şumanay tumanidagi "Qarabayli" oilaviy şifokorlik punktining oilaviy şifokori, Qoraqalpoğiston Respublikasi

Boboqulova Oysanam Raxmatovna – Yakkaboğ tumanidagi "Salomatlik" xususiy klinikasi rahbari, Qaşqadaryo viloyati

Ganiyev Tulkunjan Gapiroviç – Tibbiyot boş boşqarmasining markaziy klinik şifoxonasi kardiologiya bölimi mudiri

Yoqubov Axror Tuyiçiyeviç – Uçtepa tumanidagi "Jacksoft medical diagnostics services" xususiy klinikasi neyrojarrohi, Toşkent şahri

Komilova Xuri – Piskent tumani tibbiyot birlaşmasining içki dorixonasi provizori, Toşkent viloyati

Kamilova Altinoy Tursunbayevna – Respublika ixtisoslaştirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining gastroenterologiya ilmiy bölimi mudiri

Kayumov Taxir Pottaxoviç – Nogironligi bölgan şaxslarni reabilitatsiya qiliş va protezlaş milliy markazining boş şifokori

Qodirova Ra'no Ganiyevna – Zangiota tumani yuqumli kasalliklar şifoxonasining boş şifokori, Toşkent viloyati

Mustafakulova Saxiba Yevgaşevna – Şarof Raşidov tumani tibbiyot birlaşmasining Ravot bölimi mudiri, Jizzax viloyati

Nasretdinova Şoxida Davranbekovna – Andijon şahridagi 6-oilaviy poliklinikasi boş şifokori, Andijon viloyati

Omonov Olim Murodullayeviç – Özbekiston Respublikasi soğliqni saqlaş vaziri örinbosari

Usmanova Gulnara Maxamadjanovna – Toşkent tibbiyot universitetining köp tarmoqli klinikasi boş hamşirasi

Xolbekova Xakimaxon Ismailovna – Mirzaobod tumanidagi 17-oilaviy poliklinikasi oilaviy şifokori, Sirdaryo viloyati

Çariyeva Salima Ibragimovna – Qumqörğon tumanidagi 34-oilaviy poliklinikasi mudiri, Surxondaryo viloyati

Elov Boymurod Dilmurodoviç – Buxoro nogironligi bölgan ayollar uçun "Ğamxörlik" markazi şifokor-terapevti, Buxoro viloyati

Ergaşova Mukaramoy Jurabayevna – Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazining farmako-toksikologik tahlil laboratoriyasi mudiri

«Jasorat» medali bilan

Buribayeva Arailim Kidirovna – Respublika tez tibbiy yordam markazining Peşku tumani bölimi hamşirasi, Buxoro viloyati

Mirzayeva Şohzoda Berdiyorovna – Kökdala tumani tibbiyot birlaşmasining reanimatsiya bölimi mudiri, Qaşqadaryo viloyati

Urazbayeva Svetlana Turdimuratovna – Möynoq tumanidagi "Qozoqdaryo" oilaviy şifokorlik punkti katta hamşirasi, Qoraqalpoğiston Respublikasi

«Sodiq xizmatlari uçun» medali bilan

Botirov Meyli Turayeviç – Respublika tez tibbiy yordam markazining Koson tumani bölimi haydovçisi, Qaşqadaryo viloyati

Gimranov Emil Ildaroviç – "UZINFOCOM" mas'uliyati çeklangan jamiyati boş direktori

Maxmudova Aziza Djumanovna – Respublika ixtisoslaştirilgan gematologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktorining ilmiy işlar böyiça örinbosari

Narzullayev Abdigafur Urakoviç – Ijtimoiy himoya milliy agentligining Nogironligi bölgan şaxslarning funksionalligini baholaş boşqarmasi boş mutaxassisi

«Soğlom turmuş» medali bilan

Axmedova Şahlo Abdumuminovna – Arnasoy tumani köp tarmoqli markaziy poliklinikasining patronaj hamşirasi, Jizzax viloyati

Ibragimov Dilşodjon Soatillayeviç – Respublika tez tibbiy yordam markazining Davlatobod tumani bölimi feldşeri, Namangan viloyati

Kadirova Flora Zakirovna – Tibbiyot boş boşqarmasining 1-markaziy konsultativ-diagnostik poliklinikasi jarrohlik bölimi şifokor-otorinolaringologi

Kasimov Abdunabi Kadiroviç – Çilonzor tumanidagi "Radiks" farmatsevtika korxonasi ta'sisçisi, Toşkent şahri

Törayev Zafar Aktamoviç – Xatirçi tumanidagi 28-oilaviy poliklinikasi oilaviy şifokori, Navoiy viloyati

Xudayberdiyeva Maxsuda Buriyevna – Angor tumani sanitariya-epidemiologik osoyiştalik va jamoat salomatligi bölimi sanitariya şifokori, Surxondaryo viloyati

Şoimqulova Malika – Bekobod tumanidagi "Yangihayot" oilaviy şifokorlik punkti oilaviy şifokori, Toşkent viloyati

Şukurov Şuxrat Utkuroviç – Aholi salomatligini tahlil qiliş ilmiy-tadqiqot markazining davlat soğliqni saqlaş siyosati samaradorligini baholaş boşqarmasi boş mutaxassisi

«Kelajak bunyodkori» medali bilan

Inomov Firdavs Uluğbek öğli – Bolalar milliy tibbiyot markazining maslahat va diagnostika bölimi şifokor-nevrologi

«Şuhrat» medali bilan

Abdunazarov Erkin Ğulomoviç – Respublika tez tibbiy yordam markazining Buvayda tumani bölimi haydovçisi, Farğona viloyati

Abduraxmonova Sanoat Abdurafikovna – Samarqand tumani soğliqni saqlaş bölimi katta hamşirasi, Samarqand viloyati

Axmedova Nargiza Maxmudovna – Respublika şoşilinç tibbiy yordam ilmiy markazining Buxoro filiali şoşilinç kardiologiya va terapiya bölimi şifokor-kardiologi, Buxoro viloyati

Zakirova Zebo Anvar qizi – Sirdaryo tumani köp tarmoqli markaziy poliklinikasi IT-operatori, Sirdaryo viloyati

Kutlimuratova Enaxan Egambergenovna – Orolböyi mintaqasi ixtisoslaştirilgan kardiologiya va kardioxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining poliklinika bölimi diagnostika şifokori, Xorazm viloyati

Murtalibova Nodira Mirmaksudovna – Bolalar milliy tibbiyot markazining nefrologiya va gemodializ bölimi şifokor-nefrologi

Murtazayev Nozimjon Ne'matoviç – Milliy tibbiyot markazining neyroreanimatsiya bölimi şifokor-nevrologi

Nizamov Ulugbek Irgaşeviç – Respublika ixtisoslaştirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktorining davolaş işlari böyiça örinbosari

Nasirov Mansur Muxtoroviç – Bolalar milliy tibbiyot markazining kam invaziv xirurgiya, transplantologiya va ortopediya bölimi mudiri

Omonov Faxriddin Saparoviç – Respublika tez tibbiy yordam markazining Oqqörğon tumani bölimi feldşeri, Toşkent viloyati

Soatova Rano Axmatovna – Respublika ixtisoslaştirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining xirurgiya reanimatsiyasi bölimi kiçik tibbiy xodimi

Toşbölova Muxayyo Egamqulovna – Jizzax nogironligi bölgan ayollar uçun "Ğamxörlik" markazining kiçik tibbiy xodimi, Jizzax viloyati

Umirzokov Nizomiddin Apayeviç – Respublika tez tibbiy yordam markazining Paxtaçi tumani bölimi haydovçisi, Samarqand viloyati

Usmonov Saida'lo Komiljon öğli – Özbekiston Respublikasi Soğliqni saqlaş vazirligining standartlar va klinik qöllanmalarni işlab çiqiş va joriy qiliş boşqarmasi boşliği

Usmonov Şuxrat Urazali öğli – Respublika ixtisoslaştirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining reabilitatsiya bölimi mudiri

Şoabsarov Abduşohid Aslonoviç – Respublika şoşilinç tibbiy yordam ilmiy markazining kuyganlar toksikologiya reanimatsiyasi bölimi mudiri

Özbekiston Respublikasi Prezidenti **Ş. MIRZIYOYEV**

Toşkent şahri,
2026-yil 26-oktyabr

ÖZBEK KINOSI: TARIXIY MEROSDAN YANGI YUKSALIŞ SARI

(Davomi. Boşlanişi 1-betda).

Şuningdek, "Dolby Atmos" texnologiyasi asosida ovoz studiyasi bilan jihozlangan zamonaviy Dublyaj va ovozlaştiriş markazi taşkil etiş, milliy onlayn kinoplatforma işlab çiqib, mahsulotlarni monetizatsiya qiliş imkoniyatini yaratiş közlanmoqda.

Davlatimiz rahbari bildirilgan takliflarni ma'qullab, kino sohasida zamonaviy boşqaruv usullarini joriy qilişni jadallaştiriş, sohada ijodiy erkinlikni ta'minlaş, sifatli ssenariylar va hayotiy syujetlarga boy filmlarni suratga oliş işlarini kengaytiriş, xalqaro darajada özbek kino maktabining dovruğini tiklaş yuzasidan mutasaddilarga topşiriqlar berdi.

Şundan söng Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyev "Özbekfilm" kinostudiyasida kino sohasi vakillari bilan uçraşuv ötkazdi.

Muloqotda milliy kinoda erişilgan natijalar, sohada yeçimini kutayotgan masalalar va uni rivojlantirişning yangi yönalişlari haqida söz bordi.

Davlatimiz rahbari "Özbekfilm" bir neça avlod ijodkorlarining mehnati bilan boğliq qadrdon maskan ekanini ta'kidladi. "Mahallada duv-duv gap", "Ötkan kunlar", "Şum bola", "Çinor ostidagi duel", "Suyunçi" kabi filmlar va ularning qahramonlari xalqimiz xotirasida saqlanib qolgan. Bu an'ana mustaqillik yillarida "Abdullajon", "Otamdan qolgan dalalar", "Dilxiroj", "Vatan", "Ötov" singari asarlar bilan davom ettirildi.

– Mazkur dargohda milliy kino tariximiz, bir neça avlod ijodkorlarining mehnati, xalqimizning ekranga köçgan orzulari, intilişlari va armonlari mujassam, – dedi Prezidentimiz.

Sohaga önlab xususiy kinostudiyalar kirib keldi, milliy kadrlarning yangi avlodi yetişib çiqdi. "Islomxöja", "Ibrat", "Avloniy", "Abdulla Qodiriy", "Qöqon şamoli", "Muqimiy", "Ilhaq", "Özbek qizi", "Bahodir Yalangtöş" kabi tarixiy filmlar yaratildi. Yaqinda "Oltin globus" xalqaro kino mukofoti doirasida Markaziy Osiyo va Kavkaz kinoijodkorlarini taqdirlaş marosimi ilk bor Toşkentda ötkazildi. Unda san'atkor Gulçehra Jamilova "Meridian" mukofotiga sazovor böldi.

Prezidentimiz erişilgan natijalar bilan birga mavjud muammolarni ham oçiq körsatib ötdi. Ijtimoiy tarmoqlar rivojlangani uçun odamlar kinoteatrga bormay qöygani haqidagi fikrlarga qaramay, xorijiy filmlar namoyişida kinozallar tölmoqda.

– Demak, tomoşabin kinodan, kinoteatrlarga borişdan voz keçgani yöq, faqat uning didi va talabi özgardi, – dedi davlatimiz rahbari.

Milliy filmlarning ayni talabga javob berişiga film işlab çiqarişdan uni tomoşabinga yetkazişgaça bölgan yaxlit zanjir – distributsiya şakllanmagani tösqinlik qilmoqda. Şuningdek, professional kinotanqidçilar fikri bilan yetarliça hisoblaşilmayapti. Mamlakatimiz yetakçisi xolis tahlil ijodkorga öz kamçiliklarini köriş va ösiş imkonini berişini ta'kidladi.

Amaldagi davlat buyurtmasi va xaridi tizimi ham zamonaviy kinoindustriya talablariga javob bermayapti. Bir vaqtning özida bitta rejissyorga oltitagaça, bir muallifga yettitagaça loyiha biriktirilgan. Buyurtmalarning deyarli yarmi davlat studiyalariga berilgani xususiy ijodkorlarning teng raqobat qiliş imkonini çeklagan. Ssenariy suratga oliş jarayonida boyişi, ijodiy yeçimlar özgarişi mumkinligi bois filmni oddiy tovar yoki quriliş obyekti kabi texnik topşiriq asosida xarid qiliş töğri emasligi qayd etildi.

– Aslida ijodkor mehnatining natijasi tomoşabinni çuqur öyga solib, qalbida iz qoldirgan film bilan ölçanişi kerak, – dedi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbari kino xalqlar bir-birini tanişiga xizmat qilişini, öz tarixi, madaniyati va milliy qahramonlarini jahon ekranlarida munosib körsata olgan mamlakatning ovozi va ta'siri kengayişini ta'kidladi. Kino bugun mamlakatning xalqaro nufuzini oşiradigan "yumşoq kuç"ga aylangan. U farzandlarimiz ongi va dunyoqaraşini şakllantirişda ham katta ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz yetakçisi "Öz" ğoyasining kino san'atidagi ifodasini "Özligimizni anglab, öz hikoyamizni öz ovozimiz bilan dunyoga aytiş" deb ta'rifladi. Ekranda uluğ ajdodlarimiz bilan birga bugun yonimizda yaşayotgan insonlarning ham haqqoniy qiyofasi aks etişi kerakligini aytdi. Öqituvçilar, şifokorlar, sportçilar, Vatan himoyaçilari, tadbirkorlar, quruvçilar va yoşlarning hayoti ta'sirli filmlar uçun katta mavzu ekani qayd etildi.

– Farzandlarimiz şunday qahramonlarda özini körsin, öz kuçiga işonsin, öz yurtining kelajagiga daxldorligini his etsin, – dedi davlatimiz rahbari.

Milliy kinoni rivojlantiriş uçun sohani boşqariş, moliyalaştiriş va film yaratiş vazifalari aniq ajratiladi. Kinematografiya agentligi tugatilib, davlat siyosatini yuritiş vakolati Madaniyat vazirligiga ötkaziladi. Vazirlikda Kino san'ati departamenti taşkil qilinib, uning rahbari maqomi vazir örinbosariga tenglaştiriladi. Mas'ullarga bir oyda yangi departament işini yölga qöyiş va agentlik tizimini tugatiş işlarini yakunlaş topşirildi.

Davlat muassasasi bölgan "Özbekfilm" örnida zamonaviy biznes modeli asosida işlaydigan "Özbekfilm" milliy kinokompaniyasi taşkil etiladi. Kompaniyaning özi film işlab çiqarmaydi – ularni yaratiş töliq xususiy sektorga ötadi. Milliy kinokompaniya loyihalarni tanlaş va moliyalaştiriş, filmlarni tarğib qiliş, tarqatiş hamda xalqaro bozorlar va festivallarga olib çiqiş bilan şuğullanadi. Uning faoliyatini bir haftada yölga qöyiş vazifasi belgilandi.

Kinolarni moliyalaştirişda davlat buyurtmasi örniga subsidiya asosida qöllab-quvvatlaş tizimi joriy etiladi.

– Bundan buyon davlat filmning buyurtmaçisi emas, ijodkorlar va xususiy sektorning işonçli hamkori böladi, – dedi Prezidentimiz.

Yangi tizimda texnik topşiriqlarga emas, ijodiy jarayon va uning talablariga ustuvorlik beriladi. Moliyalaştiriş mexanizmini bir oyda joriy etiş, kelgusi yildan boşlab milliy kinokompaniya söroviga köra har yili byudjetdan tegişli mablağ ajratib boriş topşirildi.

"Özbekfilm"ning 10 gektarlik hududida kino xizmatlari jamlangan yagona industrial klaster – "Özbekfilm kino şaharçasi" taşkil etiladi. Bu maqsadga 400 milliard söm yönaltiriladi. "Kino şaharçasi"da quriladigan zamonaviy Dublyaj va ovozlaştiriş markazi uçun 80 milliard söm ajratiladi. Ikki oyda şaharçaning master-rejasi va loyiha-smetasini işlab çiqiş, qurilişni keyingi yil mart oyidan boşlaş vazifasi qöyildi.

Kinoijodkorlar uçun yana bir taşabbus ma'lum qilindi. Quyi Çirçiq tumanida zamonaviy talablar asosida ta'mirlangan "Köhinur" sihatgohi töliğiça ular ixtiyoriga beriladi. Şuningdek, har yili sohaning kamida 300 nafar xodimiga respublika sihatgohlarida dam oliş va davolaniş uçun bepul yöllanma beriladi.

Sohada ilm, tahlil va professional tanqidçilikni rivojlantiriş uçun "Kinoşunoslar klubi" taşkil etiladi. Milliy kinokompaniya uning faoliyatini qöllab-quvvatlab, Xalqaro kinotanqidçilar federatsiyasi – FIPRESCIga a'zo bölişiga kömaklaşadi.

Özbekiston Kino arboblari va Özbekiston kino sanoati vakillari uyuşmalari birlaştirilib, Özbekiston kino sohasi vakillari palatasi tuziladi. Palata ijodkorlarning mualliflik huquqlari va kasbiy manfaatlarini himoya qiliş, yoşlarning professional ösişiga kömaklaşiş bilan şuğullanadi. Yoş kinoijodkorlarning xorijda malaka oşirişi qöllab-quvvatlanadi.

Prezidentimiz "Özbekfilm" nomini milliy kinomizning yagona brendi sifatida mustahkamlaşni taklif qildi. Hozirgi Çilonzor köçasining uşbu qismiga "Özbekfilm" nomini beriş, Kino san'ati muzeyi, Kino san'ati saroyi va Milliy kinofondni ham şu nom ostida birlaştiriş taşabbusi bildirildi.

Şundan söng davlatimiz rahbari tajribali kinoijodkorlar va yoşlarning fikrlarini tingladi. Ijodkorlarga zarur şaroit yaratilişi va ularning taşabbuslari qöllab-quvvatlanişi ta'kidlandi. Yaxşi kino yaratiş uçun halol mehnat, vatanparvarlik va xalqimizni sevib ijod qiliş ham zarurligi aytildi.

– Sizlarga işonaman. Özligimizdan kuç olib, bugungi hayotimizni teran anglab, milliy kinomizning yangi sahifasini birgalikda yarata olamiz, – dedi davlatimiz rahbari.

Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyev Abu Ali ibn Sinoning bolaligiga bağişlangan "Husayn" tarixiy-badiiy filmining suratga oliş maydoni bilan tanişdi.

Bolalar kontentini rivojlantiriş markazi buyurtmasi asosida suratga olinayotgan film uçun "Özbekfilm" kinostudiyasida alloma yaşagan davr muhitini aks ettiruvçi dekoratsiyalar barpo etilgan. Davlatimiz rahbari tarixiy şahar devorlari, köça va bozor manzaralari, davr liboslari hamda suratga olişda foydalaniladigan buyumlarni közdan keçirdi.

Kinoijodkorlar bilan muloqotda Prezidentimiz davlat milliy ruhdagi, buyuk ajdodlarimiz hayotiga bağişlangan filmlar yaratilişiga e'tiborni yanada kuçaytirişini ta'kidladi. Bu yerda barpo qilingan dekoratsiyalarni yuqori baholab, ular tarixiy muhitni ekranda işonarli gavdalantirişga intilişdan dalolat ekanini qayd etdi. Boy tariximiz va allomalarimiz merosini kino tili orqali yoş avlodga yetkaziş, ularda öz ötmişiga qiziqiş va iftixor tuyğusini uyğotiş muhimligini ta'kidladi.

Filmda yoş Husayn ibn Abdullohning tabobatga muhabbati, ustozlariga sadoqati va insonparvarligi tasvirlanadi. Asar orqali bolalarga allomaning ilmga intilişi va şaxsiy fazilatlarini yaqindan tanitiş közda tutilgan.

"Husayn" filmini yaratiş Abu Ali ibn Sino ilmiy merosini çuqur örganiş va keng tarğib qiliş böyiça 2030-yilgaça möljallangan "Yöl xaritasi"da belgilangan. Hujjatda alloma tavalludining 1050-yilligiga tayyorgarlik köriş ham nazarda tutilgan.

Prezidentimiz film ijodkorlariga muvaffaqiyatlar tiladi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Abdulaziz RUSTAMOV,
ÖzA muxbirlari.

INFRATUZILMA YANGILANADI, IMKONIYATLAR KENGAYADI

(Davomi. Boşlanişi 1-betda).

Tizimda muassasalar körsatadigan yordam darajasiga qarab özaro boğlanadi. Murakkab va yuqori texnologik xizmatlar tayanç markazlarda jamlanadi, tumanlarda esa bazaviy va şoşilinç tibbiy yordam saqlanadi. Birlamçi böğinni rejalaştirişda qişloq va olis aholi punktlari hamda şaharlar uçun alohida xizmat körsatiş me'yorlari qöllanadi.

Bunday yondaşuv zarurati Samarqand viloyati misolida körsatib berildi. Viloyat aholisining 80 foizi tumanlarda yaşaydi, biroq tumanlar hissasiga şifo örinlarining 41,7 foizi töğri keladi. Master-rejada tibbiy hududlarni qayta taşkil etiş orqali tumanlar uluşini 67 foizga yetkaziş, xizmatlarni aholiga yaqinlaştiriş közda tutilgan.

Samarqand şahri, Urgut, Pastdarğom, Kattaqörğon, Işтixon va Payariqda yangi şifoxonalar quriş hamda mavjudlarini rekonstruksiya qiliş rejalari haqida axborot berildi. Viloyat markazidagi ixtisoslaştirilgan muassasalarni köp tarmoqli şifoxonalar negizida qayta taşkil etiş, markaziy laboratoriyalar, sterilizatsiya va taşxislaş xizmatlarini rivojlantiriş taklif qilindi. Urgut, Kattaqörğon va Pastdarğomda 2030-yilgaça jami 1 500 ta yangi şifo örni yaratiş nazarda tutilmoqda.

Yangi obyektlar faqat bino quriş bilan çeklanmasligi ta'kidlandi. Poliklinika va şifoxonalarni loyihalaşda bemorlar harakatini qulay taşkil etiş, infeksion nazorat, inklyuziv muhit va xonalarni jihozlaş böyiça yagona talablarni joriy etiş taklif qilindi. Davolaşda esa xalqaro tavsiyalarga asoslangan klinik protokollarni milliy şaroitga moslaştiriş, amaliyotga tatbiq etiş va natijalarini muntazam baholaş közda tutilmoqda.

Soğliqni saqlaş tizimida xususiy sektor iştirokini kengaytirişga doir qaror loyihasi ham körib çiqildi. Unda tibbiy va yordamçi xizmatlarni, jumladan, gemodializ, laboratoriya diagnostikasi, taşxislaş hamda uskunalarga texnik xizmat körsatişni autsorsing asosida xarid qiliş taklif etilgan. Bir yillik şartnomalar örniga beş yilgaça bölgan hamkorlik mexanizmlarini qöllaş xususiy şeriklarga uskuna va xizmatlarga uzoq muddatli sarmoya kiritiş imkonini beradi.

Bunda davlat tibbiyot muassasasi xizmatni xarid qiladi, xususiy taşkilot esa zarur uskunani öz hisobidan olib kelib, uning işlaşi va yangilanişini ta'minlaydi. Xaridlarni taşkil etiş uçun yagona tender hujjatlari va elektron tizim joriy qiliş, ayrim muassasalarni professional kompaniyalarga boşqaruvga beriş imkoniyatlari körib çiqildi.

Davlatimiz rahbari taqdimot qilingan takliflarni puxta işlab çiqib, bosqiçma-bosqiç amaliyotga joriy qiliş yuzasidan mutasaddilarga tegişli körsatmalar berdi.

ÖzA.

Germaniyadagi «Bristol Berlin» va «Bayerisçer Hof» mehmonxonalarida Özbekiston hamda Ozarbayjonning turistik salohiyatini tarğib qilişga bağişlangan qöşma roud-şoular bölib ötdi.

Muhokama

MAHALLALARNI KOMPLEKS RIVOJLANTIRIŞ MASALALARI – E'TIBORDA

Xalq deputatlari Mirobod tumani Kengaşining öttizinçi sessiyasida tumanda xavfsiz muhitni ta'minlaş, aholi bandligini oşiriş, mahalliy byudjet daromadlarini köpaytiriş va mahallalarni kompleks rivojlantiriş masalalari körib çiqildi.

Sessiyada Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qömitasi raisi Qutbiddin Burhonov, qömita raisi örinbosari Bahrom Abdullayev, Fan, ta'lim va soğliqni saqlaş masalalari qömitasi a'zosi Gulnora Ma'rufova iştirok etdi.

Tadbirda Özbekiston Respublikasi Prezidentining jamoat xavfsizligini ta'minlaş, huquqbuzarliklar va jinoyatçilikning oldini oliş tizimini takomillaştirişga qaratilgan tegişli qarori ijrosi, Mirobod tumanidagi kriminogen vaziyat va profilaktika işlarining natijadorligi muhokama qilindi. Unda xavfsiz köça va uylarni taşkil etiş, kriminogen vaziyati oğir mahallalarga mas'ul rahbarlarni biriktiriş, yoşlar bilan manzilli işlaş, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar muammolarini hal etiş hamda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini oliş borasida amalga oşirilayotgan işlar haqida ham ma'lumot berildi. Şu bilan birga, jinoyatçilikka qarşi kuraşişda amalga oşirilgan tadbirlar soni emas, balki ularning aniq natijasi – jinoyatlar kamayişi va aholining xavfsizligi ta'minlanişi asosiy mezon bölişi kerakligi ta'kidlandi.

Senat qömitasi raisi Qutbiddin Burhonov öz sözida tumandagi kriminogen vaziyatga doir raqamlarga alohida e'tibor qaratdi. Jumladan, har 100 ming aholiga nisbatan oldini oliş mumkin bölgan jinoyatlar körsatkiçi Toşkent şahri böyiça 131,5 tani taşkil etgan bölsa, Mirobod tumanida 182,3 taga yetgan. Mazkur raqamlar profilaktika işlarini yanada manzilli olib boriş, jinoyatçilik ösişiga sabab bölayotgan omillarni har bir mahalla va jinoyat turi kesimida çuqur tahlil qiliş zarurligini körsatmoqda.

Tumandagi 39 ta mahallaning 8 tasi "yaşil", 29 tasi "sariq" va 2 tasi "qizil" toifaga kiritilgan. Demak, köpçilik mahallalarda kriminogen vaziyatni barqarorlaştiriş böyiça qöşimça çoralar talab etiladi.

Muhokama yakunida tuman hokimligi, prokuratura va içki işlar bölimi oldiga jinoyatçilik ösişi sabablarini har bir mahalla va jinoyat turi kesimida tahlil qiliş hamda ularni bartaraf etiş böyiça bir qator ustuvor vazifalar qöyildi.

Qöşma sessiyada jamoat xavfsizligini ta'minlaşda mahalla, hokimlik, prokuratura va içki işlar organlari örtasidagi hamkorlikni kuçaytiriş, har bir rahbarning şaxsiy mas'uliyatini oşiriş, profilaktika çoralarining amaliy natijadorligini ta'minlaş zarurligi alohida ta'kidlandi.

Sessiyada fuqarolar murojaatlari bilan işlaş, mahalliy byudjet daromadlari ijrosi, qöşimça daromad manbalarini aniqlaş, norasmiy bandlik va "yaşirin iqtisodiyot"ni qisqartiriş masalalari ham muhokamaga tortildi. Şuningdek, aholi, ayniqsa, kambağal oilalar bandligini ta'minlaş, yangi iş örinlari yaratiş, kasb-hunarga yönaltiriş, subsidiya va kreditlar orqali tadbirkorlikni qöllab-quvvatlaş, ijtimoiy ehtiyojmand aholi uçun 2027-yilda iş örinlarining eng kam sonini belgilaş borasida ham fikr yuritildi.

Sessiyadan söng senatorlar tumandagi situatsion markaz faoliyati bilan tanişdi. Uşbu markaz tumandagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, obodonlaştiriş, kommunal xizmatlar, infratuzilma va fuqarolar murojaatlarini monitoringdan ötkaziş, muammolarni tezkor aniqlaş hamda mas'ul taşkilotlar faoliyatini muvofiqlaştirişga xizmat qiladi.

Mazkur zamonaviy boşqaruv mexanizmi muammolarni oldindan aniqlaş, ularning oldini oliş va aholi murojaatlariga tezkor munosabat bildiriş imkoniyatlarini kengaytirişga qaratilgani bilan e'tiborga molik.

* * *

Xalq deputatlari Olmazor tumani Kengaşining navbatdagi majlisida Senatning Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarşi kuraşiş qömitasi raisi Abdulhakim Eşmuratov iştirokida mahallalarda xavfsiz muhitni ta'minlaş, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini oliş va ijtimoiy profilaktika samaradorligini oşiriş masalalari muhokama qilindi.

Unda tuman Kengaşi deputatlari, tuman hokimligi, huquqni muhofaza etuvçi organlar, favqulodda vaziyatlar bölimi, ta'lim tizimi, mahalla fuqarolar yiğinlari vakillari hamda tegişli taşkilotlar mas'ullari qatnaşdi.

Muhokama çoğida Prezidentimizning mahallalarda xavfsiz muhitni yaratiş va huquqbuzarliklarning oldini olişga qaratilgan 2025-yil 3-yanvardagi "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratiş va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini oliş tizimi samaradorligini yanada oşiriş böyiça çora-tadbirlar töğrisida"gi hamda şu yil 5-yanvardagi "Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratiş yönalişida yaxlit manzilli işlaş tizimini joriy etişga qaratilgan qöşimça çora-tadbirlar töğrisida"gi qarorlari ijrosi tanqidiy körib çiqildi. Olmazor tumani içki işlar organlari mas'ulining mazkur yönalişda amalga oşirilgan işlar töğrisidagi axboroti eşitildi.

Ma'lumotlarga köra, tumandagi 64 ta mahallaning 9 tasi "yaşil", 55 tasi esa "sariq" toifaga kiritilgan. "Qizil" toifadagi mahallalar mavjud emas.

Senator jinoyatçilik bilan boğliq salbiy körsatkiçlar qayd etilgan mahallalardagi vaziyat yuzasidan tanqidiy fikrlarini bildirib, profilaktika işlarini kuçaytiriş zarurligini ta'kidladi. Mahalla raislari va "mahalla yettiligi" vakillariga hududlarning özига xos xususiyatlarini inobatga oliş, har bir huquqbuzarlikning kelib çiqiş sabablarini aniqlaş hamda ularning barvaqt oldini olişga qaratilgan manzilli çoralarni belgilaş vazifasi yuklatildi.

Öz navbatida, yoşlar va voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etiliş holatlari alohida muhokama qilindi. Ta'lim muassasalari mas'ullari va ularga biriktirilgan profilaktika inspektorlariga yoşlar örtasida huquqbuzarliklarning oldini oliş, ularning muammolarini öz vaqtida aniqlaş va bartaraf etiş, şuningdek, ota-onalar bilan hamkorlikda profilaktik işlarni kuçaytiriş yuzasidan zarur maslahatlar berildi.

Bundan taşqari, tuman hokimligi binosida yölga qöyilgan situatsion markaz faoliyati ham közdan keçirildi. Murojaatlarga tezkor munosabat bildiriş tizimi, ştab faoliyati va mas'ullarning vazifalari körib çiqilib, iş jarayonlarini yanada samarali taşkil etiş yuzasidan fikr almaşildi. Tuman favqulodda vaziyatlar bölimida amalga oşirilgan işlar, kuz-qiş mavsumiga tayyorgarlik holati va mavjud muammolar ham örganilib, aniqlangan masalalarga öz vaqtida yeçim topiş, mavsum davomida aholi xavfsizligini ta'minlaş va mas'ul idoralar hamkorligini kuçaytiriş böyiça tegişli körsatmalar berildi.

Özbekiston – Yevropa Ittifoqi:

HAMKORLIKNING ISTIQBOLLARI

Yaqinda Oliy Majlis Qonunçilik palatasining Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantiriş va sanoat masalalari qömitasi raisi, "Yuksaliş" umummilliy harakati raisi Bobur Bekmurodov Konrad Adenauer jamğarmasi taklifiga binoan Bryusselda bölib, Yevropa institutlari va xalqaro taşkilotlar vakillari bilan qator uçraşuvlar ötkazdi.

Uçraşuv

Taşrif doirasida Konrad Adenauer jamğarmasining rivojlaniş siyosati böyiça köp tomonlama muloqot dasturi rahbariyati bilan uçraşuv bölib ötdi. Unda Prezident Şavkat Mirziyoyev rahbarligida Özbekistonning oçiq va pragmatik taşqi siyosati, mamlakatimizning Yevropa davlatlari bilan özaro manfaatli hamkorlikni kengaytirişga qaratilgan izçil sa'y-harakatlari alohida e'tirof etildi. Şuningdek, Özbekiston va Yevropa Ittifoqi örtasidagi siyosiy muloqotni yanada mustahkamlaş, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytiriş hamda uzoq muddatli hamkorlik istiqbollari yuzasidan fikr almaşildi.

Yevropa taşqi harakatlar xizmatida Markaziy Osiyo bölimi rahbariyati bilan ötkazilgan uçraşuvda Özbekiston va YI örtasidagi Kengaytirilgan şeriklik va hamkorlik töğrisidagi bitim ijrosi, şuningdek, Samarqand sammitida e'lon qilingan 12 mlrd. yevro qiymatidagi "Global Gateway" investitsiya paketi doirasidagi loyihalarni amalga oşiriş masalalari muhokama qilindi.

Muloqot davomida Özbekistondagi qonunçilikni Jahon savdo taşkiloti bitimlariga uyğunlaştiriş jarayoni Yevropa Ittifoqi bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirişga xizmat qilayotgani ta'kidlandi. Şuningdek, "Global Gateway" loyihalari ijrosi ustidan parlament nazoratini kuçaytiriş, bu borada parlament qömitalarining mas'uliyatini oşiriş takliflari ilgari surildi.

Konrad Adenauer jamğarmasida "Yevropa Ittifoqi – Markaziy Osiyo munosabatlari va "Global Gateway" mavzuida ötkazilgan davra suhbatida Yevropa komissiyasi, Yevropa taşqi harakatlar xizmati, Yevropa parlamenti, YTTB, YIB, IHTT hamda mintaqa tahlil markazlari va OAV vakillari qatnaşdi. Unda "Global Gateway" doirasida energetika xavfsizligini ta'minlaş, muhim xomaşyoni qayta işlaş va Transkaspiy yölagi orqali Yevropa bozorlariga çiqiş masalalari muhokama qilindi. Şu bilan birga, mintaqaviy va parlamentlararo aloqalarni mustahkamlaş maqsadida har yili Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo tahlil markazlari forumini taşkil qiliş taşabbusi qayd etildi.

Bryusselda ötkazilgan Özbekiston – Lyuksemburg parlamentlararo döstlik guruhining navbatdagi strategik uçraşuvida esa ikki tomonlama aloqalarni diversifikatsiya qiliş, qonunçilik böyiça tajriba almaşişni faollaştiriş va parlamentlararo döstlik guruhlari faoliyatini yangi mazmun bilan boyitiş masalalari markaziy mavzu böldi.

Tadbirda parlament nazorati vositalaridan unumli foydalangan holda ikki davlat örtasidagi oliy darajadagi kelişuvlar ijrosini ta'minlaş va qonun ijodkorligi yönalişidagi muloqotni izçil davom ettiriş zarurligi ta'kidlandi.

Fraksiyalar hayoti

MUNOZARALAR QIZĞIN, TAKLIF VA TAVSIYALAR ASOSLI

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunçilik palatasidagi fraksiyalarining yiğilişlari bölib ötdi. Ularda ijtimoiy-siyosiy hayotimizga doir masalalar hamda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilişi rejalaştirilayotgan qator qonun loyihalari atrofliça körib çiqildi.



Tadbirkorlar uçun yangi imkoniyatlar va qulay şaroitlar

Tadbirkorlar va işbilarmonlar harakati – Özbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yiğilişida Prezidentimizning Qaşqadaryo viloyatiga taşrifi yakunlari hamda hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantiriş böyiça belgilangan ustuvor vazifalar haqida söz yuritildi.

Deputatlar yangi Qarşi şahri va "Yangi Nasaf" ekomajmuasini barpo etiş, yoşlarni zamonaviy kasblarga öqitiş, Germaniyada haq tölanadigan amaliyotni yölga qöyiş hamda qişloq xöjaligida suv tejovçi texnologiyalarni joriy qiliş kabi taşabbuslarni alohida e'tirof etdi.

Yiğilişda "Özbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga tadbirkorlik subyektlarini yanada qöllab-quvvatlaşga qaratilgan özgartiriş va qöşimçalar kiritiş töğrisida"gi qonun loyihasining muhokamasi qizğin keçdi.

Unda tadbirkorlar uçun belgilangan soliq imtiyozlaridan uzluksiz foydalaniş imkoniyatini ta'minlaş taklif etilmoqda. Şuningdek, soliq qarzi öz vaqtida tölanmagan taqdirda hisoblanadigan penya miqdori uşbu qarz summasidan oşib ketmasligi belgilanmoqda.

Soliq tölovçi kameral soliq tekşiruvi natijalari böyiça talab qilingan tuşuntiriş yoki aniqlaştirilgan soliq hisobotini taqdim etsa, uning bank hisobvaraqlari böyiça operatsiyalarini töxtatib turiş çorasini soliq organlari tomonidan avtomatik ravişda bekor qiliş nazarda tutilyapti.

– Mazkur hujjat tadbirkorlik subyektlarini qöllab-quvvatlaş, bozorda teng şaroitlar va adolatli raqobat muhitini ta'minlaşga qaratilgani bilan ahamiyatlidir, – dedi fraksiya a'zosi Diyor Husanov. – Qonun loyihasining qabul qilinişi esa tadbirkorlik faoliyatini yuritişdagi ayrim moliyaviy va ma'muriy çeklovlarni kamaytiriş, hududlarda işbilarmonlik faolligini oşirişga yöl oçadi. Şu bois uning dolzarbligi va ahamiyatini inobatga olgan holda, yakdil qöllab-quvvatladik.

Maqsad – odil sudlov samaradorligini oşiriş

"Milliy tiklaniş" demokratik partiyasi fraksiyasi yiğilişida "Özbekiston Respublikasining Ma'muriy sud işlarini yuritiş töğrisidagi kodeksini tasdiqlaş haqida"gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarining işonçli sud himoyasini ta'minlaş, ma'muriy sud iş yurituvini amalga oşiriş böyiça konstitutsiyaviy normani, şuningdek, aholining huquqiy madaniyatini oşiriş maqsadida 2017-yil 1-iyundan e'tiboran ma'muriy sudlar taşkil qilingan edi. Ma'muriy sudlar qisqa davrda öz samaradorligini amalda isbotladi.

Prezidentimizning tegişli farmoni bilan tasdiqlangan "Odil sudlov – 2030" strategiyasida ma'muriy organlar faoliyati ustidan samarali va ta'sirçan sud nazoratini örnatiş alohida ustuvor yönaliş sifatida belgilangan.

Yiğilişda fraksiya a'zolari bu borada ötkazilgan tahlillarga e'tibor qaratdi. Qayd etilganidek, Ma'muriy sud işlarini yuritiş töğrisidagi kodeksning amaldagi tahriri davlat organlari va mansabdor şaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini örnatiş, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining buzilgan huquqlari töliq va işonçli himoya qilinişini ta'minlaş talablariga yetarli darajada javob bera olmasligini körsatmoqda. Şu bois işlab çiqilgan mazkur qonun loyihasi bilan yangi tahrirdagi Ma'muriy sud işlarini yuritiş töğrisidagi kodeksni tasdiqlaş nazarda tutilmoqda. Ma'muriy sud iş yurituviga da'vo instituti kiritilib, da'vo turlarini aniqlaştiriş, şu jumladan, jamoaviy arizalar beriş tartibi va asoslari belgilanyapti. Arizani qabul qilişni rad etiş, körmasdan qoldiriş, qaytariş asoslari takomillaştirilmoqda. Davlat organlari tomonidan sud qarorlari ijrosining ta'sirçan mexanizmlarini joriy qiliş taklif etilyapti.

Fraksiya a'zosi Davron Aripovning aytişiça, loyihaning qabul qilinişi davlat organlari va mansabdor şaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini örnatiş hamda fuqaro va tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erişiş darajasini oşiriş, bu jarayonda ma'muriy sudlarning rolini kuçaytirişga qaratilgan maqsadlar röyobiga ga xizmat qiladi.

Muhokamadan söng qonun loyihasi qöllab-quvvatlandi.

Ma'muriy sud işlarini yuritiş tartibi takomillaştiriladi

"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yiğilişida "Özbekiston Respublikasining Ma'muriy sud işlarini yuritiş töğrisidagi kodeksini tasdiqlaş haqida"gi qonun loyihasi atrofliça muhokama qilindi.

U davlat organlari va mansabdor şaxslar bilan munosabatlarda fuqarolar hamda tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini işonçli himoyalaş, ma'muriy sud işlarini yuritiş tartibini takomillaştiriş, odil sudlov samaradorligini oşirişga qaratilgan.

Kodeks loyihasida da'vo turlarini aniq belgilaş, jamoaviy da'vo institutini joriy etiş, fuqarolar va tadbirkorlarning ma'muriy hujjatlarga bölgan işonçini himoya qiliş mexanizmlarini takomillaştiriş nazarda tutilmoqda.

Ta'kidlanganidek, qonun loyihasi partiyaning saylovoldi dasturida belgilangan fuqarolar va tadbirkorlarning huquqlarini himoya qiliş hamda odil sudlovga işonçini mustahkamlaş ğoyalariga mos keladi.

Fraksiya a'zosi Gulnoraxon Abduvohidovaning fikriça, ma'muriy sud iş yurituvini takomillaştiriş davlat organlari faoliyatida qonuniylikni mustahkamlaş, fuqarolar va tadbirkorlarning buzilgan huquqlarini tiklaş hamda sud qarorlarining sözsiz ijrosini ta'minlaşda muhim ahamiyatga ega. Zero, huquqiy davlatda har bir inson öz huquq va qonuniy manfaatlarini sud orqali samarali himoya qiliş imkoniyatiga ega bölişi lozim.

Savol-javoblardan söng qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan qöllab-quvvatlandi.

Dolzarb mavzular muhokamasi

Özbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yiğilişida Ma'muriy sud işlarini yuritiş töğrisidagi kodeksni xalqaro standartlar asosida takomillaştirişga qaratilgan qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan atrofliça muhokama qilindi.

Jarayonda deputatlar loyihaning ayrim normalari yuzasidan öz taklif va e'tirozlarini bildirib, ularni huquqiy jihatdan aniqlaştiriş lozimligini ta'kidladi. Xususan, deputat Dilbar Mamajonova qonun loyihasining 2-moddasida nazarda tutilayotgan "ma'muriy norma ijodkorligi" va "boşqa ommaviy huquqiy munosabatlarda huquqiy aniqlikni ta'minlaş" tuşunçalari mazmunan mavhum ifodalanganiga e'tibor qaratdi.

Fraksiya a'zosi Şokirjon Ahmedov esa 24-moddaga kiritilayotgan yangi normaning huquqni qöllaş amaliyotiga ta'siri yuzasidan savol berdi. Uşbu norma sudyalar tomonidan biryoqlama qarorlar qabul qilinişi yoki korrupsiyaviy holatlar yuzaga kelişiga sabab bölmasligi uçun qanday huquqiy kafolatlar nazarda tutilayotgani aniqlaştirilişi lozimligini ta'kidladi.

Deputat Uluğbek Şermatov ma'muriy sudlar faoliyatini isloh qiliş va qonunçilikni bugungi talablarga moslaştiriş muhimligini aytdi. Şu bilan birga, u tadbirkorlar notöğri qöllanilgan moliyaviy sanksiyalar ustidan sudga da'vo kiritganida davlat bojidan ozod etilmasligi masalasiga e'tibor qaratdi. Deputatning ta'kidlaşiça, bunday holatlarda tadbirkorlarning sud orqali huquqlarini himoya qiliş imkoniyatlarini kengaytirişga oid masalalar qonun loyihasida aniq yeçimini topişi kerak.

Deputat Zuhra Şodiyeva esa jamoaviy da'vo arizalarini sudga kiritiş mexanizmlarini aniq belgilaş zarurligini bildirdi. Uning fikriça, bunday arizalarni beriş va körib çiqiş tartibi fuqarolar uçun tuşunarli, sodda va ortiqça murakkabliklardan xoli bölişi lozim.

Muhokama yakunida fraksiya a'zolari qonun loyihasini konseptual jihatdan qöllab-quvvatladi.

Yiğilişda, şuningdek, Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi qömitasi raisiga ösimliklar karantini sohasini tartibga soliş, karantin tadbirlarini ötkaziş, kimyolaştiriş hamda ösimliklarni himoya qiliş vositalari bilan boğliq işlarni xavfsiz amalga oşiriş masalalari yuzasidan parlament sörovi yuboriş taklifi körib çiqildi va ma'qullandi.

Çiqindilarni saralaş va qayta işlaş quvvatlarini kengaytiriş zarur

Özbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yiğilişida "Radioaktiv çiqindilar töğrisida"gi qonun loyihasi körib çiqildi.

Ta'kidlanganidek, mazkur qonun loyihasi radioaktiv çiqindilar bilan boğliq işlarni amalga oşiriş borasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga soliş, aholining hayoti va salomatligini, şuningdek, atrof-muhitni radioaktiv çiqindilarning zararli ta'siridan himoya qilişning huquqiy asoslarini takomillaştirişga qaratilgan.

Loyihada radioaktiv çiqindilarni töplaş, saralaş, qayta işlaş, zararsizlantiriş, taşiş, saqlaş va kömib taşlaş tartiblarini belgilaş, sohada davlat nazorati va monitoring mexanizmlarini takomillaştiriş, mas'ul davlat organlari hamda ekspluatatsiya qiluvçi taşkilotlarning vakolatlari, huquq va majburiyatlarini aniqlaştiriş nazarda tutilmoqda.

Muhokama davomida mazkur qonun loyihasining radioaktiv çiqindilar bilan boğliq jarayonlarda xavfsizlik talablarini mustahkamlaş, davlat nazorati samaradorligini oşiriş va atrof-muhitni muhofaza qilişdagi ahamiyatiga e'tibor qaratildi.

Yiğilişda qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan qöllab-quvvatlandi.

Şundan söng Çiqindilarni boşqariş va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantiriş agentligi direktorining "Çiqindilarni boşqariş, sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantiriş hamda uşbu sohada körsatiladigan xizmatlar uçun tölov tizimini takomillaştiriş borasida amalga oşirilayotgan işlar töğrisida"gi parlament söroviga javobi muhokama qilindi.

Ma'lumotlarga köra, 2019 – 2025-yillar davomida 54 ta qattiq maişiy çiqindi poligonida rekultivatsiya işlari bajarilib, 262,8 gektar yer maydoni tabiatga qaytarilgan. Şuningdek, çiqindilarni qayta işlaş va ulardan energiya işlab çiqariş loyihalari amalga oşirilmoqda.

Fraksiya a'zolari tomonidan çiqindilarni saralaş va qayta işlaş quvvatlarini kengaytiriş, ikkilamçi xomaşyodan samarali foydalaniş hamda sanitar tozalaş xizmatlari qamrovini yanada oşiriş böyiça işlarni izçil davom ettiriş zarurligi aytilib, parlament söroviga kelgan javob ma'qullandi.

«Xalq sözi».

Forum

FAVQULODDA VAZIYATLARNING OLDINI OLIŞ – UMUMIY VAZIFA

Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qömitasi raisining örinbosari Bahrom Abdullayev Toşkent şahrida bölib ötgan Markaziy Osiyo mamlakatlari favqulodda vaziyatlar idoralari rahbarlarining mintaqaviy forumida qatnaşdi.

Unda Özbekiston, Qozoğiston, Tojikiston, Qirğiziston va Turkmaniston vakillari bilan bir qatorda Ozarbayjon Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi delegatsiyasi ham ilk bor kuzatuvçi maqomida iştirok etdi.

Forumda favqulodda vaziyatlarning oldini oliş, ularning oqibatlarini bartaraf etiş va mintaqaviy hamkorlikni yanada mustahkamlaş masalalari muhokama markazida böldi.

Tadbir doirasida Markaziy Osiyo mamlakatlarining favqulodda vaziyatlar sohasidagi hamkorligini kengaytiriş, transçegaraviy xususiyatga ega xavf-xatarlarning oldini oliş, aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen ofatlardan muhofaza qiliş, şuningdek, erta ogohlantiriş tizimlarini takomillaştiriş masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Yakunda aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qiliş, ayniqsa, çegaraoldi hududlarda mintaqaviy loyihalarni amalga oşirişga qaratilgan qator hujjatlar imzolandi.

MILLIY QADRIYATLAR VA ZAMONAVIYLIK UYĞUNLAŞADIGAN HUDUD

Prezidentimiz 12-oktyabr kuni Yangi Toşkent qurilişini jadallaştiriş masalalari yuzasidan investor va tadbirkorlar bilan ötkazgan oçiq muloqotda har bir viloyat uçun 100 gektardan yer maydoni ajratiş hamda uşbu hududlarda viloyatlarning özига xos arxitektura yeçimlarini aks ettiruvçi loyihalarni amalga oşiriş vazifasini belgilab bergan edi.

Taqdimot

Mazkur vazifalar ijrosi doirasida Yangi Toşkent şahrida Surxondaryo viloyati uçun ajratilgan 100 gektar yer maydonida quriliş işlariga start berildi.

Tadbir doirasida ajratilgan hududda amalga oşiriladigan loyihalar taqdimoti ötkazildi. Unda Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarşi kuraşiş qömitasi raisi Abdulhakim Eşmuratov, viloyat hokimi Uluğbek Qosimov, şuningdek, Toşkent şahrida faoliyat yuritayotgan surxondaryolik mutaxassislar, quriliş kompaniyalari rahbarlari qatnaşdi.

Loyihaga muvofiq 100 gektar maydonda zamonaviy turarjoylar, biznes markazlari, turizm majmualari, tadbirkorlik obyektlari, ijtimoiy soha muassasalari va zarur infratuzilma inşootlari barpo qilinadi. Bunda hududning özига xos jihatlarini aks ettiriş, milliy qadriyatlarni zamonaviy şaharsozlik yeçimlari bilan uyğunlaştiriş, şuningdek, aholi uçun qulay yaşaş muhitini yaratişga alohida e'tibor qaratiladi.

Hududning 30 foizida esa yaşil maydonlar va kökalamzor hududlar taşkil etiş rejalaştirilgan.

Taqdimot davomida loyihalarni takomillaştiriş, yer maydonidan samarali foydalaniş va quriliş işlarini sifatli taşkil qiliş masalalariga urğu qaratildi. Mas'ullarga belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlaş yuzasidan tegişli körsatmalar berildi.

ONA VA BOLA SALOMATLIGI – DAVLAT SIYOSATINING BOŞ YÖNALIŞI

Bolalar kasalliklarini erta aniqlaş, zamonaviy taşxislaş va davolaş usullarini amaliyotga joriy etiş, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlaş, malakali mutaxassislar tayyorlaş borasida yurtimizda keng imkoniyatlar yaratilgan.

Tadbir

Keça Toşkent şahrida Respublika ixtisoslaştirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining 60 yilligiga bağişlangan "Bolalik nomidan: 60 yil ğamxörlik, bilim va kaşfiyotlar" mavzuida xalqaro kongress bölib ötdi. Unda Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va soğliqni saqlaş masalalari qömitasi raisi örinbosari Oral Ataniyazova qatnaşdi.

Senator öz nutqida ona va bola salomatligini muhofaza qiliş davlat siyosatining ustuvor yönalişlaridan biri ekanini ta'kidladi. Şuningdek, yurtimizda pediatriya xizmatini rivojlantiriş, bolalarga körsatilayotgan tibbiy yordam sifatini oşiriş, ularning soğlom ösişi va farovonligini ta'minlaş borasida amalga oşirilayotgan islohotlar hamda erişilgan natijalarga alohida e'tibor qaratdi.

Anjumanda özbekistonlik mutaxassislar bilan bir qatorda Rossiya, Qozoğiston, Ozarbayjon, Turkiya va boşqa köplab davlatlardan olimlar, şifokorlar hamda soha ekspertlari ham iştirok etdi.

Tadbir doirasida pediatriyaning bugungi yutuqlari va istiqboldagi vazifalari, bolalar salomatligini muhofaza etiş, kasalliklarni taşxislaş hamda davolaşning zamonaviy yondaşuvlari muhokama qilindi. Şuningdek, ilmiy ma'ruzalar, mavzuli seksiyalar va mahorat darslari taşkil etilib, mutaxassislar örtasida özaro tajriba almaşildi.

«Xalq sözi».

Novosibirsk şahrida Özbekiston Boş konsulxonasi taşabbusi bilan ilk bor «Meros» özbek madaniyati va an'analari markazi oçildi.

MAMLAKATIMIZ SPORTI TARIXINING YANA BIR ŞONLI SAHIFASI

1 Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyevning V yozgi Paraosiyo o'yinlari ğoliblari va iştirokçilariga tabrigini Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva öqib eşittirdi.

Tabrikda ta'kidlanganidek, mard va jasur sportçilarimiz Osiyo qit'asining 45 ta davlatidan 2 600 nafardan ziyod kuçli parasportçilar iştirok etgan uşbu nufuzli musobaqalarda çinakam jasorat va matonat körsatib, mamlakatimiz sporti tarixida yana bir şonli sahifa oççanlari barçamizga iftixor bağişlaydi.

Musobaqalar yakunida vakillarimiz jami 145 ta medalni qölga kiritib, bu borada Xitoy va Yaponiya jamoalaridan keyin uçinçi örinni egalladi. E'tiborlisi, bu Özbekiston delegatsiyasining Paraosiyo o'yinlari tarixidagi eng yaxşi körsatkiçi böldi.

V Paraosiyo o'yinlarida sportçilar tomonidan 81 ta Osiyo va 27 ta jahon rekordi örnatildi. Özbekiston vakillari musobaqa davomida turli sport turlari böyiça jahon, Osiyo va Paraosiyo o'yinlarining 15 dan ortiq rekordlarini yangiladi. Eng muhimi, parasportçilarimizning muvaffaqiyatlari inson imkoniyatlarini faqat jismoniy çeklovlar bilan baholab bölmasligini, maqsad sari qat'iy intiliş va munosib şaroit mavjud bölganda ulkan marralarni zabt etiş mumkinligini yana bir bor namoyon qildi.

Marosimda hukumat vakillari, vazirlik va idoralar mas'ullari, jamoatçilik vakillari, ijodkorlar ham sözga çiqib, sportçilarimizning yutuqlari, ularning iroda va matonati, mamlakatimizda sportga qaratilayotgan yuksak e'tibor xususida tölqinlanib gapirdi.

Ğolib hamda sovrindor sportçilar nomidan sözga çiqqanlar sport rivojiga berilayotgan e'tibor, yoşlarga yaratilgan şart-şaroitlar va körsatilayotgan ğamxörlik uçun Prezidentimizga minnatdorlik bildirdi. Kelgusidagi musobaqalarda yanada yuqori natijalarga erişiş, Vatanimiz bayroğini baland kötariş uçun bor kuç va imkoniyatlarini safarbar etişini ta'kidladi.

Parasportçilarimizning bugungi yutuqlari tasodifiy emas. Ular yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantiriş, parasportçilarni qöllab-quvvatlaş, ularning iqtidorini namoyon etişi uçun zarur şaroitlarni yaratiş borasida amalga oşirilayotgan işlar samarasidir.

Işonamizki, Yaponiyada töplangan tajriba parasportçilarimizning kelgusi musobaqalardagi muvaffaqiyatlari uçun mustahkam poydevor böladi. Jumladan, 2028-yil Los-Anjelesda bölib ötadigan Paralimpiya musobaqalari, 2030-yilda Qatarda ötkaziladigan VI Paraosiyo o'yinlarida ham vakillarimiz yanada yuksak marralarni zabt etiş uçun bor kuç va mahoratlarini safarbar qiladi.

Tantanali marosimda Özbekiston Respublikasi Prezidentining sport böyiça vakili Odil Abdurahmonov iştirok etdi.

Dilşod KARIMOV («Xalq sözi»).



Muhammad AMIN (ÖzA) olgan suratlar.

Ta'limdagi ustuvor masalalar:

SONDAN – SIFATGA, TASAVVURDAN – TAFAKKURGA

Ta'lim haqida gap ketganda, yangi qarorlar, dasturlar, binolar va raqamli platformalar tilga olinadi. Bularning har biri zarur. Ammo sohadagi har qanday yangilanişning haqiqiy mezoni, avvalo, uning sifati, mazmuni va insonlar hayotidagi ijobiy özgarişlarda namoyon bölişi lozim.

Qabul körsatkiçlarining ösişi, universitetlar sonining köpayişi – bu kabi natijalar öquv dasturlari, pedagoglar salohiyati, amaliyot, talabalarni qöllab-quvvatlaş hamda bitiruvçilarning keyingi yöli bilan birgalikda baholanişi kerak. Şu nuqtai nazardan, oliy ta'lim sohasini rivojlantiriş böyiça yangi konsepsiya, ya'ni "maktabgaça ta'lim – umumiy örta ta'lim – kasbiy ta'lim – oliy ta'lim – oliy ta'limdan keyingi ta'lim" uzviyligini qamrab oladigan milliy dasturning işlab çiqilişi ayni muddao.

Tahlil

Qayd etiş joizki, sohadagi normativ hujjatlar turli davrlarda har xil ehtiyojlardan kelib çiqib qabul qilingan. Vaqt ötişi bilan ayrim talablar takrorlanib, ba'zi normalarning mazmuni eskirdi. Qabul, kredit-modul tizimi, öqişni köçiriş yoki tiklaş, litsenziyalaş, xalqaro hamkorlik va ilmiy faoliyatga doir talablarni me'yoriy-huquqiy hujjatlarning amaldagi tahririda topiş har doim ham qulay emas. Natijada universitet ma'muriy işga ortiqça vaqt sarflaşi, talaba esa öz huquqi yoki arizasining tartibini aniqlaş uçun bir neça manbaga murojaat qilişiga töğri keladi.

Taklifimiz şuki, oliy ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tizimli xatlovdan ötkaziş, takrorlanuvçi va zid normalarni aniqlaş, ularni uyğunlaştiriş hamda keyingi bosqiçda uzluksiz ta'limni qamrab oladigan Ta'lim kodeksi loyihasini işlab çiqiş lozim. U köp bölişi şart emas, tuşunilişi oson bölsin.

Maktabdan universitetgaça: şakldan mazmun birlamçi

Umumiy örta ta'lim muddatini va maktab bitiruvçisining oliy ta'limga ötiş yölini qayta körib çiqişda şoşilinç qarordan köra, tizimlararo muvofiqlik muhim. Boğçadagi tayyorlov yilini hisobga oliş örniga tölaqonli 12 yillik umumiy örta ta'lim modelini qonunçilikda belgilaş, sinflar nomlanişi va şahodatnoma şaklini xalqaro amaliyotga muvofiqlaştiriş lozim. 12 yillik modelga oid qarorlar öquv dasturi, darslik, öqituvçi tayyorgarligi, infratuzilma, moliyalaştiriş va bitiruv hujjatlarining xorijda tan olinişi bilan birga körilişi kerak.

Yutuqlarimiz köp. Deylik, maktab darajasida siljiş sezilmoqda. Vazirlik ma'lumotiga köra, "PISA – 2025"da öquvçilarimiz tabiiy fanlar böyiça 438 ball töplab, 91 davlat va ta'lim tizimi orasida 48-örinni egalladi; 2022-yilda mazkur körsatkiç 355 ball va 80-örin edi. Biroq "raqamli dunyoda öqiş" yönalişida natija 402 ball va 72-örin böldi. "PIRLS – 2021"da esa 57 davlat orasida 49-örinda edik. Demak, ösiş bor, lekin bular bilan çegaralanib bölmaydi.

Ayrim bakalavriat yönalişlarida uç yillik ta'lim modeliga ötiş ham mumkin. Biroq buni barça yönalişga bir xil tatbiq etiş notöğri. Dastur davomiyligi bitiruvçi egallaşi şart bölgan bilim, könikma hamda amaliy tajribadan kelib çiqişi kerak. Tibbiyot, muhandislik, pedagogika va boşqa kasblarning talablari bir-biridan farq qiladi. Avval ayrim yönalişlarda tajriba-sinov, mustaqil baholaş hamda xalqaro tan olinişi böyiça tahlil ötkaziş, keyin xulosaga keliş maqsadga muvofiq.

Finlyandiya tajribasi ham muhim jihatlarni eslatadi: tizimni muvaffaqiyatli, deb biliş uçun faqat uning obrösiga tayanib bölmaydi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot taşkilotining 2025-yilgi ma'lumotlarida Finlyandiyada 25 – 34 yoşdagilar orasida oliy ma'lumotlilar uluşi 2021-yildagi 40 foizdan 2024-yilda 39 foizga tuşgani, bakalavriatga kirganlarning 61 foizi nazariy muddat tugaganidan bir yil ötib diplom olgani qayd etilgan.



Bir xil talab va adolatli raqobat

Oliy ta'limda davlat va nodavlat sektorini bir-biriga qarama-qarşi qöyişdan naf yöq. Ularning taşkiliy şakli farq qilişi mumkin, ammo talaba oladigan ta'lim sifati, xavfsizligi, qonuniyligi hamda malaka talablari böyiça mezonlar aniq bölişi kerak. Soğlom raqobat bir taşkilotning imkoniyatini çeklaş bilan emas, boşqasining undan yaxşiroq dastur, kuçli pedagog, amaliyot hamda ilmiy muhit yaratişi bilan rivojlanadi.

Bu borada ikki masalani ajratiş lozim. Birinçisi – teng qoidalar va bir xil nazorat şakli. Barça universitet uçun sifat hamda talaba manfaatiga doir talablar umumiy bölişi kerak, lekin ularni bajariş usuli ta'lim yönalişi, taşkilot hajmi va xavf darajasiga qarab farqlanişi mumkin. Muhimi, nazorat natijaga qaratilişi, ortiqça hujjatlar takrorlanmasligi lozim. Masalan, yangi öquv binosini litsenziyaga kiritişda avval olingan xulosalarni qayta-qayta talab qiliş örniga, elektron "bino pasporti" hamda idoralararo ma'lumot almaşinuvidan foydalaniş mumkin.

Ikkinçisi, "Part-time" va masofaviy ta'lim şakllarining huquqiy mexanizmlarini ham zamonaviy talablar asosida aniqlaştiriş zarur. Agar muammo muayyan dastur sifatida bölsa, butun ta'lim şaklini çeklaşdan oldin sifat mezonlari, öquv natijalari hamda nazorat mexanizmlarini kuçaytiriş yöllari körib çiqilişi kerak.

Akademik mustaqillik – erkinlik va hisobdorlik birligi degani. Universitet öquv dasturini yangilaş uçun ruxsat kutib vaqt yöqotsa, mehnat bozori tez özgarayotgan şaroitda bitiruvçi keçagi talablar bilan yuzma-yuz qolişi mumkin. Şu bois universitetlarga öquv rejasini şakllantirişda köproq mustaqillik beriş tarafdorimiz.

Xalqaro hamkor universitet bilan qöşma dastur tuzilganda ham mazmuniy moslikka e'tibor beriş şart. Milliy talablar bajarilgan bölsa, zarur kompetensiyalarni faqat bir xil nomdagi fanlarni takrorlaş orqali emas, modul, kredit yoki fanlararo loyiha orqali ham özlaştiriş mumkin.

Akademik mustaqillik nazoratsizlik emas. Universitetga erkinlik berilarkan, uning javobgarligi ham hisobga olinadi, albatta. Mustaqil akkreditatsiya, öquv natijalari, bitiruvçilar bandligi, iş beruvçilar fikri va talabalar tajribasi birgalikda baholaşning asosiy manbalari böla oladi. Faqat bitta körsatkiçga tayanilsa, notöğri xulosa çiqarilişi mumkin: bitiruvçilar bandligi hududiy iqtisodiyot, kasb sohasi va bitiruvçining keyingi ta'limni davom ettirişi bilan ham boğliq.

Diplom va stipendiya: imkoniyat universitet nomiga boğlanmasligi zarur. Diplomning asosiy vazifasi bitiruvçining tegişli malaka talablarini bajarganini tasdiqlaş hisoblanadi. Hujjatning haqiqiyligini elektron reyestr va QR-kod orqali tekşiriş imkoniyati kengaysa, iş beruvçi uçun ham, bitiruvçi uçun ham jarayon qulaylaşadi. Universitetning taşkiliy şakli haqidagi ma'lumot zarur bölsa, u diplom ilovasida aks etişi mumkin. Ammo malaka talablarini bajargan insonning bilimini baholaşda e'tibor, avvalo, uning tayyorgarligiga qaratilişi lozim.

Iqtidorli yoşlar uçun teng imkoniyatlar: stipendiya tanlovlarini takomillaştiriş zarur. Iqtidorli yoşlarni qöllab-quvvatlaş dasturlarida tanlovda iştirok etiş imkoniyati adolatli va şaffof mezonlarga asoslanişi kerak.

Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktyabrdagi tegişli qaroriga muvofiq, bakalavriat talabalari uçun Prezident va nomdor davlat stipendiyalari davlat, nodavlat va xorijiy oliy ta'lim taşkilotlari talabalariga tayinlanişi mumkin. Biroq magistratura bosqiçida Prezident stipendiyasi faqat davlat oliy ta'lim taşkilotlarining kunduzgi ta'lim şaklida tahsil olayotgan talabalar uçun belgilangan.

Bunday tafovut bakalavriatda yuqori akademik natijalarga erişgan, ammo magistraturada öqişni nodavlat yoki xorijiy oliy ta'lim taşkilotida davom ettirayotgan iqtidorli yoşlarning Prezident va boşqa nomdor stipendiyalar tanlovida qatnaşişiga tösqinlik qilişi mumkin. Vaholanki, mamlakatimizdagi 215 ta oliy ta'lim taşkilotining 97 tasi nodavlat sektorga töğri keladi. Bu esa tanlov imkoniyatlarini kengaytiriş masalasi köp sonli talabalarning akademik salohiyatini röyobga çiqariş bilan boğliq ekanini körsatadi.

Vazirlikning 2026-yil 29-yanvardagi ma'lumotiga köra, 2025/2026 öquv yilida magistratura bosqiçi Prezident stipendiyasi tanloviga 195 nafar talabgorning hujjati qabul qilingan, 22 ta tanlov yönalişi böyiça kvota ajratilgan va dastlabki saralaşdan söng 61 nafar nomzod respublika bosqiçidagi suhbatga tavsiya etilgan. Tanlov natijasida 22 nafar nomzod ğolib bölgan. Uşbu raqamlar tanlovning akademik salohiyatni saralaşdagi ahamiyatini körsatadi. Ayni paytda tanlovda qatnaşiş doirasini belgilaşda ta'lim muassasasining mulkçilik şaklidan taşqari, uning akkreditatsiyasi, ta'lim sifati va nomzodning şaxsiy natijalarini ham hisobga oliş masalasini körib çiqiş maqsadga muvofiq.

Şu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktyabrdagi tegişli qaroriga magistratura va tayanç doktorantura bosqiçlariga oid ilovalar böyiça tegişli özgartirişlar kiritilişi ayni muddaodir. Jumladan, davlat akkreditatsiyasidan ötgan nodavlat va xorijiy oliy ta'lim taşkilotlarida tahsil olayotgan talabalarning Prezident stipendiyasi tanlovida belgilangan akademik mezonlar asosida teng şartlarda iştirok etiş imkoniyatini huquqiy jihatdan körib çiqiş zarur. Bu borada Ta'lim va ilm-fan vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamkorligida huquqiy va moliyaviy mexanizmlarni işlab çiqiş maqsadga muvofiq.

Zero, nomzod belgilangan akademik talablarga javob bersa, uning davlat, nodavlat yoki xorijiy oliy ta'lim taşkilotida tahsil olişi bilimini namoyon etiş imkoniyatini öz-özidan çeklamasligi kerak.

Nomuvofiqliklarga yeçim zarur

Oliy ta'limga öqişga kiriş – yölning bir qismi. Talabada uni davom ettirişga moddiy şaroit yetarli bölmasa, qabul qilingan qaror kutilgan natijani bermasligi mumkin. Ayniqsa, boşqa hududdan kelib öqiyotgan yoşlar uçun ijara, yöl va kundalik xarajatlar sezilarli yuk böladi. Ijtimoiy yordam universitetning taşkiliy şakliga emas, talabaning ehtiyoji va aniq mezonlarga asoslanişi kerak.

Şu sababli, tegişli akkreditatsiyadan ötgan nodavlat oliy ta'lim taşkilotlarining kunduzgi talabalari uçun ham ijara kompensatsiyasi oliş imkoniyatini amaldagi talablar asosida körib çiqiş taklifini ilgari surmoqçimiz. Arizalarni yagona elektron platforma orqali qabul qiliş, talabalik holati va ijara ma'lumotlarini tekşiriş hamda tölovni bevosita talabaning bank kartasiga ötkaziş şaffoflikni oşirişi mumkin. Byudjet imkoniyatlari hisobga olinişi şart, şu bois bosqiçma-bosqiç yoki davlat va universitet hamkorligidagi moliyalaştiriş modeli sinovdan ötkazilişi mumkin.

Talabalar turarjoyi masalasi ham faqat yangi bino quriş bilan hal bölmaydi. Milliy statistika qömitasining 2025/2026 öquv yili boşiga oid ma'lumotida Toşkent şahrida 98 ta oliy ta'lim taşkiloti faoliyat yuritgani qayd etilgan. Bunday öquv muassasalarining poytaxtda jamlanişi talabalar turarjoyiga bölgan ehtiyojni rejalaştirişda alohida e'tibor talab qiladi. Davlat-xususiy şeriklik asosida talabalar uçun arzon turarjoylar quriş, yaroqli böş turgan davlat obyektlarini moslaştiriş, yer ajratiş mezonlarini oçiq belgilaş mumkin.

Yordamni manzilli qiliş uçun ehtiyojni tekşiriş va mablağ sarfining nazorat mexanizmlari bölişi kerak. Biroq nazorat talabaning özига ortiqça hujjat yiğiş yukini yuklamasligi lozim. Davlat idoralarida mavjud ma'lumotni qayta-qayta talab qiliş raqamlaştiriş maqsadiga zid.

Yana bir holat şundaki, ijarada yaşovçi talabalarning ijara tölovini qoplab beriş tizimi faqat davlat OTM talabalariga tatbiq etilişi bilan boğliq. Nodavlat OTM talabalari bir xil ijara xarajatini kötarsa-da, bu ijtimoiy kömakdan çetda qolmoqda. Vazirlar Mahkamasining tegişli qarori bilan ijarada yaşovçi talabalar oylik ijara tölovining 50 foizi (Toşkent şahrida BHMning bir baravari, hududlarda yarim baravari doirasida) Davlat byudjetidan qoplab beriladi. Qarorga ilova qilingan Nizomning 1-bandida Nizom talablari nodavlat OTMga tatbiq etilmasligi belgilangan. Nizomning 2-bandida ariza beruvçi sifatida faqat davlat OTM talabasi körsatilgan.

Hujjatlar örtasida nomuvofiqlik bor. Soliq kodeksining 378-moddasi 191-bandiga köra, uy-joyni talabalarga ijaraga berişdan olingan daromadga soliq solinmaydi va bu norma talaba öqiydigan OTM turini ajratmaydi. Davlat uy egasini barça talaba uçun rağbatlantiradi, lekin ijara xarajatini faqat davlat OTM talabasiga qoplaydi.

Nazarimizda, qarorga özgartiriş kiritib, ijara kompensatsiyasini davlat akkreditatsiyasidan ötgan nodavlat OTMning kunduzgi ta'lim şaklidagi talabalariga ham tatbiq etiş, kompensatsiyani OTM orqali emas, bevosita talabaning bank kartasiga tölaş va arizani yagona davlat platformasi (HEMIS, kontrakt.edu.uz yoki my.gov.uz) orqali qabul qilişni yölga qöyiş lozim. Bunda nodavlat OTM ham uşbu tizimlarga ulanişi ta'minlanadi.

Bugun generativ sun'iy intellekt talaba va öqituvçining kundalik faoliyatiga kirib keldi. Uni butunlay taqiqlaş amaliy jihatdan qiyin. Ammo heç qanday qoidasiz qoldiriş esa akademik halollik va baholaş işonçliligiga xavf tuğdiradi. Şu ma'noda, umumiy yöriqnoma kerak, ya'ni qaysi topşiriqlarda sun'iy intellektdan foydalaniş mumkin, undan foydalanilganini qanday körsatiş lozim, şaxsiy ma'lumot va mualliflik huquqi qanday himoyalanadi, qoidabuzarlik qanday tartibda körib çiqiladi, degan savollarga javob bölişi darkor.

Baholaş usullarini ham zamonga moslaştiriş zarurati mavjud. Uyda tayyorlangan referat talabaning mustaqil bilimini har doim ham töliq körsatmaydi. Oğzaki himoya, auditoriyada bajariladigan topşiriq, amaliy loyiha va talabaning qarorini izohlab berişi baholaşning muhim qismi bölişi kerak. Fikrimizça, yakuniy baholaşning kamida 50 foizini auditoriyada nazorat qilinadigan yozma işlar, oğzaki himoya va amaliy loyihalar orqali taşkil etiş joiz.

Jamiyatga natija beriş muhim

Ta'lim tizimidagi kamçiliklarni aytişdan maqsad biror taşkilot faoliyatini inkor etiş emas. Bu muammoni nomi bilan ataş uni hal qilişning boşlanişidir.

Qonunçilikdagi noaniqlikni kamaytiriş, maktab va oliy ta'lim örtasidagi ötişni puxta rejalaş, davlat va nodavlat universitetlar uçun adolatli raqobat şaroitini yaratiş, akademik mustaqillikni javobgarlik bilan uyğunlaştiriş, ijtimoiy yordamni ehtiyojga qarab yönaltiriş va raqamli tizimlarni foydalanuvçiga qulaylaştiriş – bularning barçasi bir maqsadga xizmat qiladi. Ta'limdagi özgarişlar universitet rahbari yoki vazirlik hisobotida emas, talabaning öqişni davom ettira olişi, öqituvçining darsga köproq vaqt ajratişi, iş beruvçining tayyor kadr topişi va bitiruvçining öz kasbida ösişida körinişi kerak.

Davlatimizning vazifasi sifat va qonuniylikni ta'minlaydigan aniq qoidalarni yaratiş bölsa, universitetning vazifasi berilgan mustaqillikni sifatli ta'lim hamda halol boşqaruv bilan oqlaş, iş beruvçining vazifasi kadr tayyorlaşga real hissa qöşiş, talabaning vazifasi esa imkoniyatdan mas'uliyat bilan foydalanişdir.

Bizning pozitsiyamiz şundan iboratki, oliy ta'limda köproq hujjat emas, tuşunarli qoida: bir xil şakl emas, kafolatlangan sifat, rasmiy hisobot emas, tekşiriladigan natija ustuvor bölişi kerak.

Şerzod MUSTAFOQULOV, Xalqaro Nordik universiteti rektori.

Intiliş

QIZILQUMDA «TURIZM OVULI» TAŞABBUSI

Konimex tumanidagi Yangiqazğon mahallasi öz öramiga Fidokor, Paxtakor, Yangiqazğon, Döngalak kabi qişloq va ovullarni birlaştirgan. Ular Nurota toğ tizmalari va biyday Qizilqum kesişgan çorrahada joylaşib, aholisi, asosan, çorvaçilik bilan şuğullanadi. Binobarin, bandlikni ta'minlaş, turmuş farovonligini yuksaltiriş ham bevosita çorvaçilik ravnaqi bilan boğliq.



– Hududda çorvaçilikni, jumladan, tuyaçilikni rivojlantiriş uçun yaylov imkoniyatlari keng, – deydi Oliy Majlis Qonunçilik palatasi deputati Iba Narizova. – Tuya suti şifobaxşligi tufayli xaridorgir bölsa, juni sanoatbop tolaga ega. Şu ikki xomaşyoni qayta işlaşning özi yangi iş örinlari bilan birga, qöşimça qiymat yaratiş manbai. Mazkur omillar hududda gastronomik va ekstremal turizmni rivojlantiriş, aholi bandligini ta'minlaş va mahalliy aholining daromadlarini oşirişni yölga qöyiş imkoniyati hamdir.

Bugungi kunda Yangiqazğon mahallasida 21 ta oilaviy mehmon uyi, 7 ta ötovli oromgoh, 5 turdagi qöşimça turistik xizmatlar taşkil etilgan. Natijada 100 nafarga yaqin aholi doimiy iş örinlariga ega böldi.

Darhaqiqat, mazkur mahalla Navoiy viloyatining özига xos turizm brendiga aylanib bormoqda. Endilikda hududning turistik salohiyatini yanada keng namoyon etiş, mahalliy va xorijiy sayyohlar oqimini oşiriş, infratuzilmani yaxşilaş hamda yangi imkoniyatlarni yaratiş maqsadida Yangiqazğon mahallasiga "Turizm ovuli" maqomini beriş taşabbusi ilgari surilmoqda.

Temur EŞBOYEV («Xalq sözi»).

Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Yoşlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qömitasi uşbu qömita a'zosi, senator Aksavli Tumişovaga akasi **JAĞALBAYNING** vafoti munosabati bilan çuqur hamdardlik izhor etadi.

27-oktyabr – 8-noyabr kunlari poytaxtimizda «Prezident olimpiadasi» musobaqalarining respublika final bosqiçi bahslari bölib ötadi.

Xalq sözi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunçilik palatasi Kengaşi
Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengaşi

Boş muharrir Ötkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda Özbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan röyxatga olingan. Naşr indeksi – 429. Buyurtma G-1042. 17 780 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qoğoz biçimi A-2. Bahosi kelişilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab oliş uçun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qölyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilişi uçun obunani rasmiylaştirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli çop etilişiga "Şarq" naşriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toşkent şahri,
Islom Karimov köçasi, 55-uy.
Navbatçi muharrir Ğ. Bahromov.
Musahhih S. Islomov.

"Şarq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon köçasi, 41. ÖzA yakuni – 00.10 Topşirildi – 01.00 1 2 3 4 5 6